



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

"Tasdiqlayman"
O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori

K.T.Urinbayev
« 17 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
Innovatsiyalar vazirligi

2025-yil « 17 » 06

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi

2025-yil « 17 » 06

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)
ta'lim yo'nalishi uchun**

Toshkent – 2025 yil

Dastur Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti Kengashining 2025-yil 30-maydagi 11-sonli yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası
professori R.Qosimov

O'zbek milliy maqom san'ati markazi
direktor o'rinbosari, San'atshunoslik
fanlari nomzodi, professor S.Begmatov.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zMMSI
"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası
mudiri, dotsent I.Arabov

Taqrizchilar:

O'zDK "Xalq cholg'ularida ijrochilik"
kafedrası mudiri, professor
B.Mirpayazov

O'zMMSI "Maqom cholg'u ijrochiligi"
kafedrası dotsenti
X.Aripov

Kirish

60211500 - Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishi bo'yicha 1-ijodiy imtihon "Maqom cholg'u ijrochiligi" hamda 2-ijodiy imtihon "Musika nazariyasi va musika adabiyoti" fanlari bo'yicha tuzilgan ushbu dastur abituriyentlarning amaliy-nazariy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar quyidagi tartib bo'yicha o'tkaziladi:

- 1-ijodiy imtihon "Maqom cholg'u ijrochiligi" fani (amaliy)
- 2-ijodiy imtihon "Musika nazariyasi va musika adabiyoti" fani (og'zaki)
 - a) "Musika nazariyasi"
 - b) "Musika adabiyoti"

1. "Maqom cholg'u ijrochiligi" fanidan ijodiy imtihon maqsadi va vazifalari

60211500 - Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturi abituriyentlarning amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Abituriyentlar umumiy tayyorgarlik darajasi, ijodiy qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi hisobga olingan holda me'yoriy dastur asosida baholanadi.

"Maqom cholg'u ijrochiligi" fanini o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega ekanliklari va o'zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iborat. Alohida e'tibor professional darajali ijroni yuqori badiiy saviyada ko'rsatib berishga qaratilishi kerak. "Maqom cholg'u ijrochiligi" fani yuzasidan abituriyent davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo'lgan, ya'ni insoniyat madaniyati, tarixi, rivojlanish pog'onalari xususan, adabiyot va san'at sohasida teran fikr yuritish bilan birga turli musiqiy janrlar yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60211500 - Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishga kirayotgan abituriyentlarni saralash maqsadida kirish imtihonlari talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

Abituriyent ijodiy imtihon komissiyasiga quyida ko'rsatilgan shakldagi asarlarni taqdim qilishi lozim:

- 1 ta turkum shakldagi maqom cholg'u yo'llaridan asar;
- 1 ta turkum shakldagi maqom ashula yo'llaridan asar;
- 1 ta xalq kuyi;
- 1 ta bastakorlar ijodiga mansub asar;

O'qishga kiruvchiga mazkur shakldagi ijro dasturini namoyish etishi uchun 30 daqiqagacha bo'lgan vaqt ajratiladi.

Cholg'uda ijro dasturi

60211500 - Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishiga ariza topshirgan barcha abituriyentlardan tayyorlangan ijro dasturlarini yakka tarzda, jo'rnavoz jo'rligida yoddan ijro etib berishlari talab etiladi.

Abituriyent asarlar musiqiy matnini xatosiz, sur'atini nota matnida ko'rsatilganidek, ijro shtrixlarini to'g'ri qo'llagan holda, tovushlarni sof ifoda etib, pozitsiya va applikaturalarni to'g'ri qo'llagan holda asarni badiiy mohiyati va milliy xususiyatlarini to'liq talqin etib berishi zarur. Asarda musiqiy ifoda vositalari va milliy ijrochilik bezaklarini qo'llanilishi, tovush kuchi va uni boshqarish hamda ijro sifati asosiy ahamiyatga ega.

Taxminiy ijro dasturi quyidagilardan iborat

1. Shashmaqom mushkilot, Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u yo'llaridan yoki Xorazm chertim yo'llaridan turkum asarlar Masalan: Tasnif-Gardun, Tarje'-Gardun yoki Muxammas, Saqillardan biri.

2. Shashmaqom ashula, Farg'ona-Toshkent maqom ashula yo'llaridan yoki Xorazm maqomlarining aytim yo'llaridan turkum asar. Masalan: Saraxbor, Talqin, Nasr, Tani Maqom, Talqin, Naqsh, Savt yoki Mo'g'ulcha va h.k.

3. Xalq kuylari yoki bastakorlar ijodiga mansub musiqiy asarlardan biri. Masalan: "Mushkiloti Dugoh", "Mushkiloti Segoh", "Surnay navosi", "Surnay Irog'i", "Nasrullohi", "Navro'zi Ajam", "Ajam va uning taronalari", "Nazzora qil", "Ishq", "Kuygay", "Gul Jamol" va boshqalar.

BAHOLASH MEZONI

"Maqom cholg'u ijrochiligi" ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1.	Asar matnining to'g'riligi	10,0 ballgacha
2.	Tovush sifati va uni boshqarish	10,0 ballgacha
3.	Applikaturaning qo'llanishi	10,0 ballgacha
4.	Sahna madaniyati	6,0 ballgacha
5.	Asarni usulda to'g'ri ijro etilishi	10,0 ballgacha
6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi	10,0 ballgacha
7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	10,0 ballgacha
8.	Intonatsiya sofligi	10,0 ballgacha
9.	Asar xususiyatini ochib berilishi	7,0 ballgacha
10.	Sur'atning to'g'ri tanlanishi (asarning ritmik holati)	10,0 ballgacha
Jami:		93,0 ball.

"Maqom cholg'u ijrochiligi" fanidan jro dasturi bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – 93,0 ball.

2. "Musika nazariyasi va musika adabiyoti"

a) "Musika nazariyasi"

Musika nazariyasi fanidan abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

- musiqiy-nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- nazariy tushunchalar asosida garmonik tuzilmalar va intervallar tuzish;
- berilgan interval va akkordlarni aniqlash va tegishli tonalliklarga yechish;
- musiqiy-nazariy tilning barcha tarkibiy qismlarini bilish va amaliyotda qo'llash;
- musiqiy-nazariy atamalarni bilish.

Abituriyent "Musika nazariyasi" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda, og'zaki topshiriqlarni xatosiz bajarganda, musiqiy-nazariy qonuniyatlarni tahlil qilish, musiqiy-nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida baholanadilar.

BAHOLASH MEZONI

"Musika nazariyasi" fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyentning nazariy bilimlari quyidagi mezon asosida baholanadi:

No	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Berilgan tovushdan major, minor ladlarining uch xil turi va xalq lادلarni tuzish	10,0 ballgacha
2.	Berilgan tovushdan ko'rsatilgan diatonik va xromatik intervallarni tuzish, ularni tonalligini aniqlash va yechish	10,0 ballgacha
3.	Berilgan tovushdan ko'rsatilgan akkordlarni tuzish va ularni tonalligini aniqlash va yechish	13,0 ballgacha
Jami:		33,0 ball.

"Musika nazariyasi" bo'yicha abituriyentlarning to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – 33,0 ball.

b) "Musika adabiyoti"

Kollokvium tarzidagi suhbatdan abituriyentning "Musika adabiyoti" fanidan jahon, rus, o'zbek musiqasi tarixiga oid savollarga javob berishi, topshirgan yo'nalishi tarixi haqida bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi. Og'zaki ravishda savollar mazmun-mohiyatini ochib berish talab etiladi.

BAHOLASH MEZONI

“Musiqi adabiyoti” fanidan kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyentning nazariy bilimlari quyidagi mezon asosida baholanadi:

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	O'zbek musiqa adabiyotidan savollarga javob	15,0 ballgacha
2.	Rus musiqa adabiyotidan savollarga javob	7,5 ballgacha
3.	Chet el musiqa adabiyotidan savollarga javob	7,5 ballgacha
Jami:		30,0 ball.

“Musiqi adabiyoti” bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball – 30,0 ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Apellatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo'yicha institut qabul komissiyasining appelyatsiyalar bilan ishlash hay'atiga natijalar e'lon qilingan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin va arizalar o'natilgan tartibda ko'rib chiqiladi.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrasidan tuzilgan

60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturiga

TAQRIZ

60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishining Maqom cholg'u ijrochiligi fani uchun ishlab chiqilgan Baholash mezonini abituriyentlarning ijro dasturi asosida egallagan amaliy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha abituriyentlar Shashmaqom, Farg'ona – Toshkent maqom yo'llari hamda Xorazm maqom cholg'u yo'llaridan turkum asar, milliy mumtoz musiqa va bastakorlar asarlaridan namunalar ijro etish borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar ushbu tasdiqlangan mezon asosida baholanishi ko'zda tutilgan.

Ushbu mezonga malaka talablari hamda Namunaviy fan dasturlari asos qilingan. Mezon kirish qismi, fanning ijodiy imtihon maqsad va vazifalari, abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar, cholg'uda ijro dasturi va baholash mezonlari kabi tarkibiy qismlardan iborat. Mazkur baholash mezonini Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon topshiruvchi abituriyentlar uchun har tomonlama qulay shaklda ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib 60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) ta'lim yo'nalishi ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonini abituriyentlarni baholashda asos sifatida qo'llanilishini ma'qullayman.

Taqrizechi:

Yunus Rajabiy nomidagi O'ZMMSI

"Maqom cholg'u ijrochiligi"

Kafedrasidan dotsenti



X.Aripov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

"Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası tomonidan tuzilgan

60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular)

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha ijodiy imtihon dasturiga

TAQRIZ

Ijodiy imtihonlar uchun tuzilgan mazkur dastur – kelajakda bakalavriyat ta'lim yo'nalishining cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur Davlat ta'lim standartlariga binoan san'at sohasida o'rta ta'lim tizimini o'quv rejalari asosida tuzilgan.

Dasturda o'quv faninnig maqsadi va vazifalari; fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar; Fanning san'at tizimidagi o'rni; abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ishni baholash mezonini aks etgan.

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası tomonidan tuzilgan 60211500 – Cholg'u ijrochiligi (an'anaviy cholg'ular) bo'yicha ijodiy imtihon dasturi: 1-ijodiy imtihon "Maqom cholg'u ijrochiligi" fani (amaliy), 2-ijodiy imtihon "Musiqa nazariyasi va musiqa adabiyoti" fani (og'zaki) asosida tuzilgan bo'lib, abituriyentlarning amaliy-nazariy ko'nikma va malakalarini aniqlashga qaratilgan.

Mazkur dasturda soha bo'yicha yaratilgan zamonaviy adabiyotlar, shu jumladan chet el tajribasi ham inobatga olingan.

Tuzilgan dastur Davlat ta'lim standartlariga mos keladi. Dastur amaliyotda qo'llash uchun tavsiya etiladi.

Taqrizehi:

O'zDK "Xaql cholg'ularida ijrochilik"

Kafedrası mudiri professor



B.Mirpayazov